

SAID AHMAD HIKOYALARIDA SHAXS VA JAMIYAT ILLATLARINING AKS
ETILISHI

Barakayeva Shodiya

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti
o'zbek tili va adabiyoti fakulteti magistranti.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18078253>

Annotatsiya. Said Ahmad hikoyalarida davr muhiti, inson va jamiyat masalasi asosiy mavzulardan biri sifatida ko'tarilgan. Muallif o'z hikoyalarida jamiyatdagi ijtimoiy muammolar, salbiy illatlar haqida keng fikr yuritib, laganbardorlik, ikkiyuzlamachilik, adolatsizlikni qoralagan. Ushbu maqola mazkur mavzularni tahlil qilishga va adib asarlaridagi inson, jamiyat va davr o'rtasidagi murakkab munosabatlarni yoritishga qaratilgan.

Kalit so'zlar: hikoya, hikoyanavislik, shaxs tushunchasi, jamiyat, davr, uslub, ijtimoiy hayot, fojea, illat, badiiy tasvir vositalari, inson va jamiyat munosabati.

Аннотация. В рассказах Саида Ахмада одной из ключевых тем является отражение духа эпохи и проблемы взаимоотношений человека и общества. Автор в своих произведениях подробно размышляет о социальных трудностях и негативных явлениях в обществе, осуждая такие пороки, как угодничество, лицемерие и несправедливость. Данная статья направлена на анализ этих тем и раскрытие сложных связей между человеком, обществом и историческим временем, отражённых в творчестве писателя.

Ключевые слова: рассказ, рассказоведение, понятие личности, общество, эпоха, стиль, социальная жизнь, трагедия, порок, художественно-изобразительные средства, взаимоотношения человека и общества.

Annotation. In the short stories of Said Ahmad, the spirit of the era and the issues of the individual in relation to society emerge as key themes. In his works, the author offers a profound reflection on social problems and negative societal traits, strongly condemning sycophancy, duplicity, hypocrisy, and injustice. This article aims to analyze these aspects and highlight the complex relationships between the individual, society, and the historical context as depicted in the writer's narratives.

Keywords: short story, short-story writing, concept of the individual, society, era, style, social life, tragedy, vice, artistic expressive devices, relationship between the individual and society.

Har bir ijodkor adabiyotga o'z mavzusi, qahramonlari bilan birga kirib keladi. U o'zi yashayotgan davrni, uni o'rab turgan muhitni, istak mayli va tajribasini o'z asarlarida singdirishga harakat qiladi. Said Ahmad - o'zbek adabiyotida o'ziga xos uslub, o'tkir tahlil va samimiyluk bilan ajralib turadigan yozuvchilardan biridir. Uning hikoyalari o'zida inson qalbi va jamiyat o'rtasidagi murakkab munosabatlarni yoritadi. Adib asarlarida shaxs va jamiyat muammolari, davr fojeasi ularning manfaatlari o'rtasidagi muvozanat hamda individning ijtimoiy mas'uliyatlari keng tahlil qilinadi. Jamiyatdagi illatlar, insoniyat "fojeasi" o'tkir satira va yumor orqali ham ochib berishga uriniladi.

Said Ahmad hikoyalari turli mavzularga bag'ishlangan bo'lib, ularda voqealarning haqqoniy aks ettirilishi, chiqariladigan mantiqiy xulosaning hayotiyligi hamda qahramonlar qiyofasining yorqinligi ko'zga tashlanadi. Said Ahmad hayotda ro'y bergan oddiy voqealarni o'z asarlariga mavzu qilib olar ekan, ulardan kelib chiqadigan xulosaga asosiy fikrni yuklaydi. Bu xulosalar ba'zan jiddiy, ba'zan esa satira va yumorga yo'g'rilgan bo'ladi.

Yozuvchidagi aynan shu xislat o'z o'quvchisini o'ziga jalb etadi. Uning o'quvchilari yosh jihatdan xilma-xil bo'lib, har bir muxlis uning ijodidan o'ziga keragini topib o'qiy oladi.

Shu jihati bilan u ko'pchilikning sevimli adibidir.

Said Ahmad hikoyalarida insonning jamiyatdagi o'rni, uning ijtimoiy burch va huquqlari alohida ko'tariladi. Xususan, Said Ahmadning "Azob", "Qoplon", "Buqalamun bilan uchrashuv" hikoyalarida kishilardagi xushomadgo'ylik, laganbardorlik, o'z manfaati yo'lida andisha ham qilmay, bezbetlarcha ish tutish, odamlarni amal kursisiga qarab muomala qilish kabi yaramas illatlar tanqid ostiga olinadi." Azob" hikoyasi qahramoni Normat rais shunchalik tilyog'lama laganbardor bo'lishiga qaramay hikoyaning bosh qahramoni tuman hokimi Ergash Nosirovni o'z "nag'masiga o'ynatolmaydi", shu paytgacha o'zidan yuqori lavozimdagi kishilarni alqab,ularga turli sovg'a-salomlar berib laganbardorlik qilib kelgan, vaqtida Ergash Nosirovni mensimay uni kamsitgan rais vaqti kelib unga bo'yin egishga majbur bo'ladi, Normat rais Ergash Nosirovni amal kursisiga o'tirganini eshitgan zahotiyoq uning uyiga narxi falon pul turadigan sog'in sigirni el olib boradi, o'lguday ziqna, xasis, laganbardor, o'z foydasiga ish ko'ruvchi bu odamning qilgan ishi, tabiiyki, Ergash Nosirovga yoqmasdi, aqlli hokim shunday qiladiki, o'z illatalari bilan jazolaydi, rais aybini anglaydi, o'zini o'zi "azoblaydi" shu jihatdan hikoya nomi "Azob".

"Menga qarang, rais aka! Sizga hech kim azob berayotgani yo'q, siz o'zingizga o'zingiz azob beryapsiz. Bu yaxshi. Odam o'z qilmishi uchun o'zini o'zi jazolay olsa, o'ziga o'zi azob bera olsa, u odamga ishonsa bo'ladi. Siz yaxshi raissiz..."¹

Muallif asarlari hayotda yomonlik hech qachon o'z jazosini olmay qolmas, ezigulik doimo g'olib degan g'oyani ilgari suradi. Adibning ushbu hikoyalari rus yozuvchisi A.Chexovning "Hamelyon" hikoyasini eslatadi.

"Qorako'z majnun"da ham bora-bora ona bilan bola begonaga aylanadi. Ona o'g'lining e'tiqodini o'zgartirganidan xabar topib ko'ngli vayron bo'ladi. Bir kuchukcha - Qorako'z majnuncha onasiga sadoqat ko'rsata olmaydi o'g'li. Hikoyada juda katta ma'rifiy ma'no-mazmun jamlangan. O'zbekona urf-odatlar qadr-qiyamatiga nолоyiq bir farzandning qilmishlarini ko'rsatish orqali urg'u beriladi. To'g'risi, itning vafosi bir o'g'ilning ona ko'nglini vayron qilishiga nisbatan yuksak ma'naviy martabalarda turishi hamisha ulug'vorlik kasb etadi. "Said Ahmadning o'z e'tirofiga ko'ra bunday qisqa, mazmunli yozish san'atini, so'zni tejash ilmini Abdulla Qahhordan, hajviy hikoyalarida yumoristik vaziyatlar yaratish usulini G'afur G'ulomdan o'rgangan ekan.

Adibning ushbu hikoyasida iymon-e'tiqodli Saodat kampirning "o'ris shaharlarida daydib qolib ketgan o'g'li Bo'rixon"ga qaraganda itning o'zi yashagan, tuz totgan joyiga, egasiga sadoqati ta'sirchan yoritilgan. Hikoyaga itning aynan vafodorligi tufayli jannatga kiradigan o'n nafar hayvonlardan biri, ya'ni "As'hobi kahf"ning iti ekani haqidagi hadis epigraf sifatida bejiz keltirilmagan. Qorako'z Majnun o'zini boqqan Saodat kampirning gaplarini tushunardi.

Ayniqsa, kampir uni "qayoqlarda qolib ketding" deb urishsa, gunohkorona bosh egib turardi. Biroq kampirning o'ttiz ikki yil oldin o'rislar orasida uylanib qolib ketgan o'g'li Bo'rixon onasining "Qayoqlarda yurganding?" degan gaplarini tushunmay, yelka qisib qo'ya qoladi. Sababi u ona tilini unutgan edi. Shunda kampir: "Tushunmadingmi? Sen boshqa odam bo'lib ketibsan", – deydi o'g'liga Ukalari bilan ruscha ohangda "Salyam" deb ko'rishadi.

Ayniqsa, ona o'g'lining bo'ynidagi zanjir uchida osilgan butni ko'rib, uning dindan chiqqaniga chiday olmaydi.

¹ Said Ahmad. Qorako'z Majnun: hikoyalar. – T.: "Sano-standart", 2024

Bo'rixon armiya xizmatini o'tagan joyida, o'rmon ichkarisidagi qishloq butxonasi qo'ng'iroqchisining erdan qolgan qiziga oshiqu beqaror bo'lib, qiz otasining talabiga ko'ra xristian dinini qabul qilib, cherkovda cho'qintirilib, toj kiygancha nikohdan o'tadi. Qaynotasi vafotidan so'ng esa uning o'rniga cherkov qo'ng'iroqchiligini bajaradi. Cherkovdagi shamlarni yangilab turadi".²

Xullas, hikoyada o'zligini, dinini, urf-odatlarini yo'qotgan, yaqinlarini unutgan Bo'rixon (Borya) obrazi Qorako'z Majnunday aqlli, odamlarday sadoqatli itga zid qo'yiladi. Chunki Qorako'z Majnun egasi Saodat kampir o'lgandan keyin ham uning xotirasi bilan, uning ovozi qo'msab yashaydi. Hatto bu narsa uning o'limiga ham sabab bo'ladi. Kampirning nevarasi buvisining tirik vaqtida itga aytgan gaplarini magnitafon lentasiga yozib olgan bo'ladi. Shuni qo'yganda it kampirni tirik deb o'ylab rosa vovillaydi. Uning ovozi xunobi oshgan kishi itni otib qo'yadi. Qorako'z Majnun kampirning ovozi kelayotgan boloxona tomonga yuzini burgancha, jon taslim qiladi.

Said Ahmad hayotda ro'y bergan oddiy voqealarni o'z asarlariga mavzu qilib olar ekan, ulardan kelib chiqadigan xulosaga asosiy fikrni yuklaydi. Bu xulosalar ba'zan jiddiy, ba'zan esa satira va yumorga yo'g'rilgan bo'ladi. Yozuvchidagi aynan shu xislat o'z o'quvchisini o'ziga jalb etadi. Uning o'quvchilari yosh jihatdan xilma-xil bo'lib, har bir muxlis uning ijodidan o'ziga keragini topib o'qiy oladi. Shu jihati bilan u maktab o'quvchilarining ham sevimli yozuvchisidir.

Said Ahmadning ko'pgina asarlarida shaxsiy erkinlik va jamiyat qoidalari o'rtasidagi ziddiyatlar yoritilgan. Hikoyalardagi qahramon o'z istaklari va jamiyatning uni majburlagan sharoitlar o'rtasida tanlov qilishga majbur bo'ladi. Ushbu tanlov orqali inson erkinligi va jamiyat qadriyatlari o'rtasidagi muvozanat masalasi tahlil qilinadi.

Said Ahmad hikoyalari inson va jamiyat munosabatlariga oid muhim savollarni ko'taradi.

Adib asarlarida insonning shaxsiy erkinligi, ijtimoiy mas'uliyati va jamiyatdagi o'z o'rnini yuksak badiiy mahorat bilan tasvirlangan. Bu hikoyalar nafaqat adabiy qadriyat, balki ijtimoiy o'rganish uchun ham boy manba hisoblanadi. Yozuvchining asarlari o'quvchini insoniylik, adolat va mas'uliyat haqida chuqur o'ylashga undaydi.

Said Ahmadning hayotiy hikoyalari bugungi zamon o'quvchisini ham o'z fikr-mulohazalari orqali tarbiya qilishi bilan ahamiyatlidir.

Adabiyotlar:

1. Said Ahmad. Qorako'z Majnun: hikoyalar. – T.: "Sano-standart", 2016. – 232 b.
2. Ahmad S. Ufq. – Toshkent: "Sano-standart", 2024. – 147 b.
3. Ahmad S. Hikoyalar. www.ziyouz.com kutubxonasi.
4. Ahmad S. Yo'qotganlarim va topganlarim (xotiralar, adabiy o'ylar va esselar). – Toshkent: "Sharq", 1998. – 304 b.
5. Mirvaliyev S., Shokirova R. O'zbek adiblari. – T.: "Fan", 2007. 42-b.
6. Normatov U. Umiddaxsh tamoyillar. – T.: "O'zbekiston", 2006. 93-b.
7. www.ziyouz.net
8. www.turklib.uz
9. www.uz.wikipedia.org
10. www.kh-davron.uz
11. www.wikipedia.org

² Said Ahmad. Qorako'z Majnun: hikoyalar. – T.: "Sano-standart", 2016